


G'AFUR G'ULOM HAYOTI YOSHLARGA O'RNAK



Haqberdiyeva Husnubonu
Qarshi davlat universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Halilova Shahlo

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston davlat arbobi, Sharq va G'arb ilg'or madaniyatining chuqur bilimdoni, xalq yozuvchisi G'afur G'ulom ijodi haqida batafsil ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek, G'afur G'ulomning Vatanni himoya qilish haqidagi tantanovar she'rlari, o'tmish sarqitlarini qoralovchi hajviylari haqida fikr-mulohazalar batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ijod, vatanparvarlik, Islom Karimov , "Shum bola", "Mening o'g'rigina bolam", "Sen yetim emassan".

Kirish

Xalqimizning zabardast yozuvchisi G'afur G'ulom Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida kambag'al dehqon oilasida 1903-yil 10-mayda tavallud topdi. "Mirza", "G'ulom" taxalluslari bilan g'azallar mashq qilgan adibning otasi G'ulom Mirza Orif o'g'li zehnli, fors tilining bilimdoni bo'lgan. U tatar, rus, ozarbayjon tillarini ham yaxshi bilgan. G'afur G'ulomning onasi Toshbibi aya ham o'qimishli, adabiyotni sevadigan ayollardan bo'lgan. Afsuski, bilimdon G'afur to'qqiz yoshida otasidan, o'n besh yoshida onasidan yetim qoldi. Va avval eski maktabda so'ngra rus-tuzem mакtabida ta'lim oldi. Oilasini boqish ilinjida G'afur oliy maktablarda o'qiy olmadi. Oktabr to'ntarishidan keyingi yillarda u muallimlar tayyorlov kursini bitirib, yangi maktablarda o'qituvchilik qildi. 1923- yildan boshlab bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so'ng "Kambag'al dehqon", "Sharq haqiqati",

"Qizil O'zbekiston" gazetalari tahriyatlarida ishladi. Ro'znama uning uchun dorilfunun rolini o'tadi va xalq hayotini o'rganish, unga faol aralashish yo'lida muhim vosita bo'ldi. Chunki G'afur G'ulom vatanparvar, xalqsevar, fidoyi bir el farzandi bo'lgan. Uning mamlakatni himoya qilish haqidagi ulug'vor qasidalar, xalqning kundalik ijodiy mehnatini olqishlovchi asarlaridan jamlangan "Dinamo" va "Tirik qo'shiqlar" nomli dastlabki she'riy to'plamlari 1931-1932-yillarda chop etildi. Shoir liro-epik janrlarida ham ijod qilib, bir qator balladalarni, shu jumladan, "Ko'kan" poemasini, "To'y", "Ikki vasiqa" balladalarini yaratdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi :

G'afur G'ulom butun umri davomida ko'plab she'rlar, dostonlar yozdi. U yozgan har biri she'r-u dostonida yaxshilik, ezhulik, birodarlik hamda do'stlikni ulug'ladi. Ulug' maqsad va fikr yo'lida xalqni safarbarlikka da'vat qildi. Uning asarlariga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri ommani keljakka katta umidlar bilan qarashga

undashdir. G'afur G'ulomning ijodi urushdan keyingi yillarda ham misoli, bahor faslidagi daraxtlar singari kurtak ocha boshladi. Bir qator publitsistika va adabiyotshunoslikka oid ajoyib maqolalarni e'lon qildi. Shu davrda G'afur G'ulom o'zining she'riy asarlari bilan faylasuf shoir darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, "Shum bola" qissasi, "Mening o'g'rigina bolam" singari hikoyalari bilan xalq turmushi va ruhini yaxshi biluvchi mohir nosir ekanini ham namoyish etdi. "Shum bola" qissasida yozuvchining hayotidan olingan ko'p faktlar bo'lsa-da, u avtobiografik qissa sanalmaydi va qissada ijodkorning bolaligi va asr boshidagi Toshkent hayoti yaqqol tasvirlangan. Asar badiiy to'qima bo'lib, unda fantaziya kuchli. Qissani 1968-yilda F.Shayhutdinova hamda 1970-yilda A. Naumov rus tiliga, V. Grimich 1991-yilda Ukrain tiliga tarjima qilishgan. 1977-yil asar asosida "Shum bola" filmi suratga olingan. Film nafaqat o'zbek balki xorijiy film tanqidchilari tahniniga sazovor bo'lgan. Urush! noming o'chsin jahondan,-deb bejiz aytilmagan. Sababi, urush inson hayoti uchun bamisoli do'zax demakdir. G'afur G'ulomning ham "Mening o'g'rigina bolam" asari urush davrlaridagi voqealarni nazarda tutadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Asarni o'qigan har bir o'quvchining ko'z o'ngida urushdan aziyat chekkan insonlarning azob chekishi, oilasini boqaman deb bir uyga o'g'rilikka tushishi, lekin urush bo'lishiga qaramasdan, o'z jonimizni asraylik degan o'y-hayollardan yiroqda bo'lgan insonlarning bir-biriga bo'lgan mehr-oqibati yaqqol gavdalanadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Adibning kechirgan hayot yo'li bugungi yoshlarga o'rnak bo'lsa arziydi. Ijodkorning vatanparvarligi, millati uchun jonini ham berishga tayyorligi dunyodagi har bir o'g'il-qizning vujudida Vatanga bo'lgan muhabbatiga o't yoqadi. Hattoki, birinchi Prizedentimiz Islom Karimov ham xotirasi qalblarda mangu iz qoldirgan ijodkor haqida : " G'afur G'ulomning ijodini faqatgina O'zbekistonda emas, avvalambor har tomonlama, butun dunyoga mashhur qilishimiz kerak " degan iliq fikrlarni aytib o'tganlar.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Jumaboyev M " Bolalar adabiyoti".- T.O'qituvchi, 2011, 260 bet.
2. R. Ikromova, D. Muhamedov, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil, 240 bet
3. Jumaboyev M "O'zbek bolalar adabiyoti" -T.O'qituvchi, 2002, -290 bet